



Asosiy tarkib

Dastlabki ma'lumotlar


Tarkibiy qism, ulushlarda



Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 1 035,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan 10,8 % ga o'sgan. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 99,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 138,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 935,3 mlrd. so'mni (8,4 % ga o'sgan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 124,5 mlrd. so'mni (6,6 % ga o'sdi) tashkil etdi.



o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **1 035,1** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-oylariga nisbatan 10,8 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **9,6 %** to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 43,3 % ulush bilan 448,5 mlrd. so'm ni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida 2,8 % ulush bilan 29,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, 935,3 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan 8,4 % ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 90,4% ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Kosonsoy (98,8%), Uychi (98,7%), Mingbuloq (98,5%) va Yangiqorg'on (97,7%) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2022- yilning yanvar oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Chust (130,3 %), Pop (110,9 %) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



| | Jami, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|-------------------|------------------|---|------------------------------|---|---|---|
| Namangan viloyati | 1035,1 | 110,8 | 99,8 | 138,9 | 935,3 | 1035,1 |
| Namangan sh. | 448,5 | 109,7 | 35,8 | 119,7 | 412,7 | 448,5 |
| tumanlar: | | | 0,0 | | 0,0 | |
| Mingbuloq | 29,1 | 103,5 | 0,4 | 78,1 | 28,7 | 29,1 |
| Kosonsoy | 48,8 | 106,3 | 0,6 | 88,1 | 48,2 | 48,8 |
| Namangan | 47,4 | 104,4 | 1,3 | 69,6 | 46,1 | 47,4 |
| Norin | 43,9 | 110,5 | 3,8 | 101,7 | 40,1 | 43,9 |
| Pop | 64,4 | 110,9 | 4,1 | 79,7 | 60,3 | 64,4 |
| To'raqo'rg'on | 58,7 | 109,6 | 6,0 | 137,1 | 52,7 | 58,7 |
| Uychi | 49,1 | 106,2 | 0,6 | 20,3 | 48,4 | 49,1 |
| Uchqo'rg'on | 40,9 | 107,6 | 2,8 | 98,1 | 38,1 | 40,9 |
| Chortoq | 37,8 | 106,2 | 1,3 | 92,2 | 36,5 | 37,8 |
| Chust | 110,8 | 130,3 | 41,8 | 250,6 | 69,1 | 110,8 |
| Yangiqo'rg'on | 55,5 | 110,8 | 1,3 | 85,4 | 54,3 | 55,5 |

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oylariga nisbatan **38,9 %** ga ko'paygan va 99,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 935,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **8,4 %** ga o'sgan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kosonsoy (98,8 %), Uychi, (98,7 %), Mingbuloq (98,5 %), va Yangiqo`rg`on (97,7%), tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (37,7 %), To`raqo`rg`on (10,2 %), Norin (8,7 %) tumanlarida kuzatildi.



**NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yil yanvar oyi holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **357,0** ming so'm (2021-yil yanvar oylariga nisbatan 8,5 % ga ko'paygan). Chust (128,0 %), Pop (109,0 %), Norin(108,6 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (686,8 ming so'm), Chust(407,6 ming so'm) va Pop(286,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




| | Hajm, ming so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, % da |
|-------------------|-----------------|---------------------------------------|
| Namangan viloyati | 357,0 | 108,5 |
| Namangan sh. | 686,8 | 107,2 |
| tumanlar: | | |
| Mingbuloq | 224,0 | 101,3 |
| Kosonsoy | 226,8 | 104,0 |
| Namangan | 261,0 | 102,2 |
| Norin | 262,0 | 108,6 |
| Pop | 286,7 | 109,0 |
| To'raqo'rg'on | 254,4 | 107,1 |
| Uychi | 223,5 | 103,8 |
| Uchqo'rg'on | 231,9 | 105,6 |
| Chortoq | 185,1 | 104,2 |
| Chust | 407,6 | 128,0 |
| Yangiqo'rg'on | 247,6 | 108,5 |



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,8 %** ni tashkil etib, **18,6 mlrd. so'mga** yetdi va 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **2,5 %** ga o'sgan. Bunda jami savdo aylanmasining **99,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda**



| | Jami, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonala r, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda a | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------|---------------------|--|---|---|---|--|
| Namangan viloyati | 18,6 | 102,5 | 0,1 | 2,1 | 18,5 | 118,4 |
| Namangan.sh | 11,2 | 102,7 | 0,1 | 2,2 | 11,1 | 129,8 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Mingbuloq | 0,4 | 100,9 | 0,0 | 0,0 | 0,4 | 100,9 |
| Kosonsoy | 0,5 | 102,7 | 0,0 | 0,0 | 0,5 | 102,7 |
| Namangan | 1,0 | 105,6 | 0,0 | 0,0 | 1,0 | 128,9 |
| Norin | 0,5 | 102,4 | 0,0 | 0,0 | 0,5 | 102,4 |
| Pop | 1,0 | 102,0 | 0,0 | 0,0 | 1,0 | 102,0 |
| To'raqo'rg'on | 0,7 | 101,6 | 0,0 | 0,0 | 0,7 | 101,6 |
| Uychi | 0,4 | 102,4 | 0,0 | 0,0 | 0,4 | 102,6 |
| Uchqo'rg'on | 0,7 | 101,7 | 0,0 | 0,0 | 0,7 | 101,7 |
| Chortoq | 0,5 | 101,4 | 0,0 | 0,0 | 0,5 | 101,4 |
| Chust | 1,4 | 101,4 | 0,0 | 0,0 | 1,4 | 101,4 |
| Yangiqo'rg'on | 0,3 | 101,5 | 0,0 | 0,0 | 0,3 | 101,5 |

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **286,0** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **10,6 %** ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **35,3** mlrd. so'mni (**23,3 %** ga kamaygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **250,7** mlrd. so'mni (**17,9 %** ga ko'paygan).


o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Chust (134,3%), Uychi (109,9 %), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Kosonsoy (118,6%), Chust (118,6%), Norin (116,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




| | Jami, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm | 2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|-------------------|---------------------|---|------------------------------------|--|--|--|
| Namangan viloyati | 286,0 | 110,6 | 35,3 | 76,7 | 250,7 | 117,9 |
| Namangan.sh | 146,5 | 114,3 | 9,6 | 69,5 | 136,9 | 119,7 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Mingbuloq | 4,9 | 113,4 | 0,0 | 0,0 | 4,9 | 113,7 |
| Kosonsoy | 15,7 | 118,9 | 0,0 | 50,1 | 15,7 | 119,0 |
| Namangan | 10,1 | 114,1 | 0,0 | 19,3 | 10,1 | 114,8 |
| Norin | 9,6 | 116,5 | 0,0 | 0,0 | 9,6 | 116,5 |
| Pop | 12,1 | 110,0 | 0,0 | 0,5 | 12,1 | 110,4 |
| To'raqo'rg'on | 22,3 | 85,9 | 8,1 | 58,8 | 14,2 | 116,7 |
| Uychi | 25,8 | 115,1 | 13,0 | 109,9 | 12,8 | 121,0 |
| Uchqo'rg'on | 3,7 | 111,2 | 0,1 | 67,2 | 3,6 | 112,4 |
| Chortoq | 15,0 | 95,4 | 2,4 | 50,9 | 12,5 | 115,1 |
| Chust | 8,4 | 118,6 | 2,1 | 134,3 | 6,3 | 114,2 |
| Yangiqo'rg'on | 11,9 | 114,5 | 0,0 | 0,0 | 11,9 | 114,5 |

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oylari yakuniga ko'ra, **286,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **17,9** % ga o'sgan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,7** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo`rg`on, Mingbuloq Norin, (100,0 %), Pop (99,99%), Kosonsoy (99,96%) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Uychi (49,6%) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel : (69)-211-72-00